



NAVOIY HAQIDA ENG MUHIM MA'LUMOTLAR

Unarova Dilafruz Abdimajit qizi

SamDChTI akademik litseyi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

dilafruzunarova1@g.mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz Alisher Navoiy haqidagi eng muhim faktlar haqida fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: Navoiyning she'riyati, hayoti, ijodi haqida

Quyida e'tiboringizga Alisher Navoiy hayotiga ta'alluqli 15 ta ma'lumotlarni taqdim qilamiz:

1.Navoiyning ilmga bo'lgan ishtiyoqi erta uyg'onib, 4 yoshida maktabda ta'lim ola boshlagan.

2.Navoiy hazratlari 7 yoshida Farididdin Attorning «Mantiqut-tayr» asarini yoddan bilganlar.

3.7 yoshli Nizomiddin Mir Alisher buyuk muhaddisimiz Buxoriy hazratlarining olti mingdan ziyod hadisi shariflarini yod bilgan.

4.Mir Alisher 7-8 yoshlaridan boshlab g'azallar yoza boshlagan.

5.Alisher Navoiy «muqarrabi hazrati sultoni» («sulton hazratlarining eng yaqin kishisi») degan unvonni olgan.

6.Unvon Navoiyga davlatning barcha ishlariga aralashish huquqini bergan. Turkiy tilni qayta tiriltirgani Navoiyning ma'naviyatimiz uchun ulkan jasorati bo'lgan.

7.Zahiriddin Muhammad Bobur «Turkiy til bila to she'r aytibdurlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas», — deb yozsa, Husayn Boyqaro «Mir Alisher turk tilining o'lik jasadig'a Masih nafasi ila jon ato etdi» deb ta'kidlagan.

8.Alisher Navoiy o'n besh-o'n olti yoshlarida ham turkiy, ham forsiyda ijod qiladigan “ikki tilli” shoir sifatida tanilgan.



9. Alisher Navoiy o'smirlik yillarida o'zi sevgan shoirlarning 50 ming baytdan ortiq she'rlarini yod bilgan.

10. Alisher Navoiy turkiy tilda yozgan she'rlariga Navoiy, forsiy tildagi she'rlariga Foniyy deb taxallus qo'yadi. Shoirning forsiy she'rlar to'plami "Devoni Foniyy" deb nomlangan.

11. Navoiyning sevgilisi sifatida tasvirlanadigan "Guli" ismi faqat xalq og'zaki ijodida, Navoiy haqidagi rivoyat va afsonalarda uchraydi xolos.

12. Guli nomi Navoiyning hayoti haqida ma'lumot beruvchi yozma manbalarning hech birida uchramaydi.

13. Navoiy asarlarida Farhod – komil inson timsolidir. U bolaligidan ilmga chanqoq bo'ladi va bir marta o'qigani sira yodidan chiqmaydi.

14. Farhod o'n yoshga yetganda hamma ilmlarni egallab bo'ladi. Navoiy taxminan 18-19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Jomiy uni ham farzand, ham shogird sifatida qadrlaydi. Keyinchalik bu ikki ulug' shoir o'rtasidagi ustoz va shogirdlik munosabatlari yanada mustahkamlanib, ijodiy hamkorlikka aylanadi. Samarqand Navoiyning hayoti va ijodida muhim ahamiyat kasb etadi. Alisher 1464 yilda Samarqandga keladi va bu yerda madrasada tahsil olib, ilm-fan, adabiyot va san'at bilan tanishadi.

15. 1469 yili Navoiy do'sti Husayn Boyqaroning taxtga chiqishi munosabati bilan 90 baytdan iborat "Hiloliya" qasidasini yozadi ("hilol" – yangi chiqqan oy). Navoiy o'z jamg'armasi hisobidan Hirotda va butun Xuroson mamlakatida 300 dan ortiq inshootlar qurdirgan. Alisher Navoiy 16 ta adabiy janrda ijod qilgan. Navoiy turkiy tilidagi ilk "Xamsani" 2 yil davomida yozadi. Dunyoning 64 tilga tarjima qilingan bu asar 51 ming misradan ortiq. Shoirning lirik merosi umumiy hajmi 50000 misradan ortiq «Xazoyinul-maoniy» nomli to'rt devon (1491—1498)ga jamlangan. Alisher Navoiy 1501 yil 3 yanvarda vafot etdi. Uni dafn etish chog'ida maydalab yomg'ir yog'ib turgan edi. Buni tarixchi Xondamir "hatto tabiat ham motam tutdi" deya ta'riflagan.



1470-yillarning oxirlarida Alisher Navoiy o'zining o'zbek tilida yozgan she'rlaridan iborat ilk devoni — «Badoe' ul-bidoya» («Badiiylik ibtidosi»)ni tuzdi. Mazkur devonda 777 g'azal, 85 ruboiy, 52 muammo, 46 qit'a, 53 fard, 10 tuyuq, 10 lug'z, 3 mustazod, 5 muxammas, 3 tarje'band, 2 musaddas bo'lib, bunday mukammal devonni tuzish Navoiygacha kamdan-kam o'zbek shoiriga nasib bo'lgan. Alisher Navoiy «Badoe' ul-bidoya» tuzilgandan keyingi davrda yozilgan o'zbekcha she'rlari asosida 1480 yillarning oxirida «Navodir un-nihoya» («Behad nodirliklar») devonini tuzdi. 1841 — 82 yillarda Alisher Navoiy «Chixl hadis» («Qirq hadis» yoki «Arbain») asarini yozadi. Bunda Muhammad payg'ambar(sav) ning qirq hadisi to'rtlik bilan she'riy ifodalab berilgan. Alisher Navoiy mansub adabiy hayotda she'riy janrlardan g'azal, qasida, ayniqsa muammo yozishga qiziqish kuchli edi. Alisher Navoiy forsiy devoniga 373 muammo kiritgan. Shunday adabiy mayllar tufayli 1485 yil muammo yozish qoidalari haqida maxsus «Mufradot» asarini yaratdi. Alisher Navoiyda o'zbek tilida «Xamsa» — besh doston yaratish maqsadi yoshligidan bo'lgan. Bu maqsadini 1483—85 yillarda amalga oshirdi. Asar o'zbek adabiyoti shuhratini olamga yoyib, jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Баҳодир Карим. (2000). Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. Тошкент. Университет.
2. Алишер Навоий. (1992) Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 9 жилд. Хамса. Лайли ва Мажнун. Фан.
3. Алишер Навоий. (1987) Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. т. 1 Т.: Фан
4. Чўлпон. (1991) Асарлар. 1-жилд Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт.
5. Д.Қуронов. (1997) Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. Т.: Ўқитувчи. 6